

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>S.M.Zokirova</b>	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
<b>I.T.Xojaliyev</b>	
Tasvir nutq tipining modal aspketi.....	1319
<b>M.A.Usmanova</b>	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
<b>R.N.Umarova, O.U.Xolmatova</b>	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati .....	1328
<b>O.F.Turdaliyev</b>	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
<b>R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova</b>	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
<b>A.I.Saminov</b>	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
<b>G.Z.Rozikova</b>	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar .....	1346
<b>N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova</b>	
Allegory as a research object of linguistics .....	1351
<b>E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva</b>	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili .....	1354
<b>U.I.Nosirova</b>	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi .....	1360
<b>Sh.R.Mo'ydinov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
<b>Y.I.Karimov</b>	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini .....	1369
<b>G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova</b>	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili .....	1373
<b>D.M.Ismoilova</b>	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari .....	1378
<b>G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva</b>	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
<b>Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova</b>	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar .....	1388
<b>E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva</b>	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi .....	1392
<b>Sh.M.Iskandarova</b>	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar .....	1397
<b>X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova</b>	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi .....	1401
<b>Z.A.Akbarova</b>	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida .....	1406
<b>P.M.Axmadjonov</b>	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
<b>O.Q.Abbozov</b>	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
<b>I.T.Axmadjonov</b>	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
<b>M.T.Abdupattoyev</b>	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish .....	1422
<b>A.Mamajonov, O.Q.Abbozov</b>	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
<b>M.T.Abdupattoyev</b>	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 811.512.133`373.422

**SINTAKTIK SATHDA QARAMA-QARSHILIK MUNOSABATINING IFODALANISHI**  
**ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ОТНОШЕНИЙ ОППОЗИЦИИ НА СИНТАКСИЧЕСКОМ УРОВНЕ**  
**REPRESENTATION OF OPPOSITION RELATIONSHIP AT THE SYNTACTIC LEVEL**

**Ibragimova Extiyotxon Ismailovna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent**O'rinboyeva E'zozxon Komolovna<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi**Annotatsiya**

Dunyo tilshunosligida til birliklarining ma'no tomonini semantik jihatdan asoslash, ularning lingvistik qonuniyatlarini ishlab chiqish va lingvopoetik imkoniyatlarini aniqlashga doir bir qator tadqiqotlar olib borildi. Antonim so'zlarni morfemik, leksik va grammatik birliklar doirasida va lingvistik tadqiqot metodlari asosida o'rganish muammosi qo'yildi. Zotan, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra farqlanuvchi lisoniy birliklarning umumiy va xususiy tomonlarini belgilashda ma'no jihatdan qarama-qarshi bo'lgan semalarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada qarama-qarshilik munosabati xususida fikr yuritilib, ushbu hodisa sintaktik sathda zidlik mazmunini ifodalovchi bog'lovchisiz hamda bog'langan qo'shma gaplar doirasida aniqlangan.

**Аннотация**

В мировой лингвистике проведен ряд исследований по семантическому обоснованию смысловой стороны языковых единиц, выявлению их языковых закономерностей, определению их лингвопоэтических возможностей. Поставлена задача изучения антонимов в рамках морфемных, лексических и грамматических единиц и на основе методов лингвистического исследования. Действительно, определение общих и специфических сторон языковых единиц, различающихся по соотношению формы и значения, важно для определения семантически противоположных тем.

В статье рассматривается отношение противопоставления, причем данное явление определяется на синтаксическом уровне в контексте союзов без союза, выражающего содержание противоречия.

**Abstract**

In world linguistics, a number of studies have been conducted on semantically substantiating the meaning side of language units, developing their linguistic regularities, and determining their linguopoetic possibilities. The problem of learning antonyms within the framework of morphemic, lexical and grammatical units and on the basis of linguistic research methods was set. Indeed, defining the general and specific aspects of linguistic units, which differ according to the relation of form and meaning, is important to determine semantically opposite themes.

The article discusses the relation of opposition, and this phenomenon is defined at the syntactic level within the context of conjunctions without a conjunction expressing the content of the contradiction.

**Kalit so'zlar:** qo'shma gap, zidlik, konnotativ ma'no, qarama-qarshilik munosabati, yashirin (implitsit) ma'no.

**Ключевые слова:** сложное предложение, противоречие, коннотативный смысл, отношение оппозиции, скрытый (имплицитный) смысл.

**Key words:** compound sentence, contradiction, connotative meaning, opposition relation, hidden (implicit) meaning.

**KIRISH**

Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabati qo'shma gaplar doirasida ifoda etiladi.

**O'zbek tilida qo'shma gaplar ma'lum mazmun munosabatlarini ifodalashi va grammatik jihatdan shakllanishiga ko'ra uch turga bo'linadi:**

I. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

II. Bog'langan qo'shma gaplar.

III. Ergash gapli qo'shma gaplar.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

## TILSHUNOSLIK

Ma'lumki, shu davrga qadar o'zbek tilshunosligida qarama-qarshilik munosabati, ziddiyat hodisasi yuzasidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, deyarli, bir sath doirasida bajarildi. Bu esa, o'z navbatida, hodisaning til sistemasidagi ahamiyatini yetarlicha baholanmasligiga sabab bo'ldi. Holbuki, qarama-qarshilik munosabati tilning barcha sath birliklari doirasida kuzatiladi. Ushbu maqolada sintaktik sath, xususan, bog'lovchisiz va bog'langan qo'shma gaplar doirasida kuzatiladigan qarama-qarshilik munosabatini tahlil qilishga harakat qilingan.

Qarama-qarshilik munosabatining nazariy muammolarini aniqlashda va uning o'ziga xos belgilarini ko'rsatib berishda tavsifiy, oppozitiv, qiyosiy, komponent va kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ikki va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro grammatik bog'lovchilar yordamisiz birikuvidan tuzilgan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplar deyiladi.

I. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar uch turga bo'linadi: 1) payt munosabatini ifodalagan bog'lovchisiz qo'shma gaplar, 2) qiyoslash munosabatini ifodalagan bog'lovchisiz qo'shma gaplar, 3) izohlash munosabatini ifodalagan bog'lovchisiz qo'shma gaplar. [1; 301]

1) qismlari bir-biriga qiyoslanayotgan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda quyidagi semantik munosabatlar ifodalanishi mumkin:

a) bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan qismlardan anglashilgan voqea, hodisalar bir-biriga zid qo'yiladi. Zidlik munosabatida, asosan, qo'shma gap tarkibidagi ayrim bo'laklarning mazmuni qiyoslanadi:

*Quda bo'lganingiz uchun ham izzatingizda turganingiz yaxshi. Uzoqdagi kishnashar, yaqindagi tishlashar.* (A.Qahhor, "Sinchalak")

Ushbu qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatdan o'zaro zid bo'lib, bu munosabat ega (*uzoqdagi/yaqindagi*) va kesim (*kishnashar/tishlashar*) orqali ifodalangan.

*Afsuski, tushmadim men ham osmondan,*

*Yaxshidan yomonman, yaxshi yomondan.* (I.Mirzo, "Afsuski")

Bu qo'shma gap qismlari o'rtasidagi qarama-qarshilik mazmuni ketma-ket holatda kesim vazifasida kelgan *yaxshi/yomon* so'zlari orqali yuzaga chiqqan.

b) bog'lovchisiz qo'shma gap ayrim turlarining ikkinchi qismida birinchi qismdan anglashilgan zidlikka qaramay, ma'lum bir ish-harakatning yuzaga kelishi ifodalanadi. Bu xil gaplar o'zining intonatsiyasi va qo'shma gapning ikkinchi qismning birinchi qismga mazmunan tobe bo'lishi bilan xarakterlanib turadi:

*Zer-u zabar – zabar bilan zer bo'ldi,*

*Yer osmonga chiqdi, osmon yer bo'ldi.* (I.Mirzo, "Zer-u zabar") Bu yerda qo'shma gap komponentlari orasidagi ziddiyat ikkinchi qismda birinchi qismdagi ish-harakatning aksi bajarilganligi bilan izohlanadi.

s) qo'shma gap tarkibidagi qismlarning mazmunlari bir-biriga qiyoslanadi, chog'ishtiriladi, shu yo'l bilan ular o'rtasidagi farq ochiladi: *Birlashgan daryo bo'lar, tarqalgan irmoq bo'lar. Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar.* (Maqollar)

Keltirilgan maqollar tuzilishiga ko'ra bog'lovchisiz qo'shma gap bo'lib, uning qismlari o'rtasidagi o'zaro zidlik birinchi sodda gapni (*birlashgan daryo bo'lar/ishlagan osh tishlar*) ikkinchi sodda gap (*tarqalgan irmoq bo'lar/ishlamagan tosh tishlar*)ga qiyoslash, chog'ishtirish orqali ifodalangan.

II. Bog'langan qo'shma gaplar deb o'zaro teng bog'lovchilar yordamida birikkan, mazmuni va tuzilishiga ko'ra bir butunlikni tashkil etgan qo'shma gap turlariga aytiladi. Bog'langan qo'shma gapni boshqa qo'shma gap konstruksiyalaridan farqlab turuvchi asosiy grammatik belgi ularni tashkil etgan qismlarni bir-biriga Biriktirib turuvchi teng bog'lovchilar va vazifadosh yuklamalardir. Bog'langan qo'shma gapni tashkil etgan qismlar orasida ham bog'lovchisiz qo'shma gaplarda bo'lganidek, payt, qiyoslash, sabab-natija, izohlash va ayirish mazmun munosabatlari ifodalanadi. [1; 333]

Bog'langan qo'shma gap qismlari orasida turli mazmun munosabatlarining ifodalanishida shu qismlar tarkibidagi gap bo'laklarining ma'nosi va o'rinlashishi, ularning

semantik va grammatik jihatdan o'zaro munosabati, ayrim leksik elementlarning qo'llanishi, gaplarning ohangi kabi omillar muhim hisoblanadi. Masalan, qo'shma gap qismlarida ma'nosi bir-biriga zid so'zlar va shakllarning qo'llanishi qiyoslash-zidlash va ayirish mazmun munosabatini keltirib chiqaradi:

*Minnatli osh bu-sochma o'qdek,  
Ich-ichingni kuydirar cho'g'dek.  
Qorin och-u nazarim to'qdek,  
Meni aziz bilgan yo'qchilik.*

(I.Mirzo, "Meros")

Bu gapda *och* va *to'q* antonimik juft kesim vazifasini bajarib, ko'chma ma'noda qo'llangan. Qo'shma gap komponentlari bog'lovchi vazifasidagi yuklama orqali bog'langan hamda qiyoslash orqali zidlash mazmuni kelib chiqqan. Bog'lovchi vositani zidlov bog'lovchilari (ammo, lekin, biroq) bilan almashtirib qo'llash gapdagi zidlik munosabatini yanada aniqroq ifodalanishi uchun xizmat qiladi.

*Qanday shirin bu baxt, bu safo,  
Shunday achchiq bu dard, bu jafo.*

**Ko'zyosh bilan tugaydi, ammo**

**Tabassumdan boshlanar sevgi.** (I.Mirzo, "Tabassum")

Mazkur qo'shma gapdagi qarama-qarshilik mazmuni esa vositali to'ldiruvchi (ko'zyosh bilan/tabassumdan) vazifasida kelgan antonim so'zlar bilan birgalikda har ikkala qismni solishtirish hamda ularni zidlov bog'lovchisi (ammo) yordamida bog'lash orqali ifodalangan.

Ba'zan zidlik munosabatini ta'minlaydigan shakllar birdan ortiq qo'llanilishi ham mumkin:

**Asar, umuman olganda, yomon emas-u, ammo tishga tegadigan joylari ham bor.** (Sh.Otabek, "Do'rmon hangomalari") Bu o'rinda qo'shma gap komponentlarini bog'lashga xizmat qilgan bog'lovchi vazifasidagi yuklama va zidlov bog'lovchisining bir o'rinda kelishi mazmundagi zidlikni kuchaytirishga xizmat qilgan.

O'zbek tilida eng ko'p qo'llanuvchi bog'langan qo'shma gaplapdan biri grammatik shakli zidlovchi bog'lovchilar *ammo, lekin, biroq* bo'lgan bog'langan qo'shma gaplardir. Bu tur bog'langan qo'shma gaplarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bu xususiyatlar boshqa tur bog'langan qo'shma gaplarga xos emas. Chunonchi, bunday bog'langan qo'shma gaplarning komponentlaridan biri tasdiq shaklda kelib, tasdiqni bildirgan voqeani ifodalasa, ikkinchisi inkor shaklda bo'ladi va inkor voqeani ifodalaydi. Yoki har ikki komponent ham tasdiq formada bo'lib, tasdiqni bildirgan voqeani ifodalaydi, yo inkor formada bo'lib, inkor voqeani ifodalaydi. Lekin har qanday holatda ham zidlik munosabatini bildiradi. [2; 133-134] Aksariyat hollarda, ana shu zidlik tarkibida to'siqsizlik ko'rinadi. Chunki gapda ifodalangan hamma fikr ham eksplisit tarzda namoyon bo'lavermaydi. Ko'p hollarda fikr implisit (yashirin) tarzda ifodalanadi. Gapda ifodalangan implisit (yashirin) fikr gap qurilishida ishtirok etgan real leksik tarkibdan anglashilgan ma'nolarni solishtirish orqali aniqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, implisit fikr real tashqi struktura orqali yuzaga chiqmaydi, balki gapning ichki (yashirin) strukturasi orqali tasavvur etiladi. [2; 139] Bu zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gaplarda ham ko'rinadi. "Bunday qo'shma gaplar uchun "zidlik" mazmuni umumiy hisoblanadi. Bevosita zidlik ma'nosidan o'sib chiqqan va unga bog'liq bo'lgan "qiyos", "izoh", "shart", "to'siqsizlik" mazmun munosabatlari bunday modeldagi qo'shma gaplarning farqlovchi ma'nolari hisoblanadi". [3; 133-134]

**Bog'langan qo'shma gap qismlarining o'zaro aloqasi orqali quyidagi mazmun munosabatlari ifodalanadi:**

1. Qiyoslash munosabati.
2. Biriktiruv munosabati.
3. Ayiruv munosabati.
4. Sabab va natija munosabati.
5. Izohlash munosabati.

Ba'zan bog'langan qo'shma gap qismlarining mazmuni bir-biriga qiyoslanishi mumkin. Ma'lum voqea, hodisa, belgi-xususiyatlarni bir-biriga qiyoslashdan maqsad, ular orasidagi farqni aniqlash yoki ularni zid qo'yish, bir-biriga nomuvofiq ekanini ko'rsatishdir.[1; 334] Qiyoslash munosabatini ifodalovchi qo'shma gap ikki markazga, ya'ni ikki qismga bo'linadi. Har ikki qism bir-biriga qiyoslanadi. Qiyoslash orqali ana shu ikki

## TILSHUNOSLIK

markaz bir-biriga zid qo'yiladi, ularning bir-biriga nomuvofiq ekanligi ko'rsatiladi. Shunga ko'ra, qo'shma gap tarkibida qancha gap mavjud bo'lsa, ular o'zaro bog'lanib, birikib, aniq ikki markazga guruhlanadi: *Qorinlar to'ldi, tovoqlar bo'shadi, lekin so'fi "savob" bo'ladi deb, hali ham dasturxonga to'kilgan guruchlarni terib, og'ziga solmoqda edi.* (S. Ayniy)

Qiyoslash munosabatini ifodalagan asosiy grammatik vositalar zidlov bog'lovchilari, esa, bo'lsa, yo'qsa elementlari, yuklamalar va inkor kategoriyasidir. Qiyoslash mazmun munosabatining turli ottenkalarini ifodalashda leksik vositalar qo'llanadi. Masalan:

*Savollar bermagin – azobdadir jon,  
Yaxshilab yashasang, umr bu – qiynoq.*

*Qaydan qaytishimni bilaman ayon,  
Qayga borishimni bilmayman biroq.* (U. Azim, "Ko'nglim...")

Mazkur qo'shma gap qismlari o'zaro *biroq* zidlov bog'lovchisi yordamida birikkan bo'lib, sodda gaplarni o'zaro qiyoslash orqali zidlik munosabati keltirib chiqarilgan. Qiyoslash *bormoq/qaytmoq* antonim fe'llari va *bilmoq* fe'lining bo'lishli hamda bo'lishsiz shakllari orqali ifodalangan.

*Bor edi - yo'qday edi,  
Ko'chaga hech chiqmasdi.*

*Ko'zlari cho'g'day edi,  
Lekin menga yoqmasdi.*

*Yo'lin poylamas edim,  
Uni o'ylamas edim.* (I. Mirzo, "O'smirligim ertagi")

Bu gapda qiyosdan ko'ra to'siqsizlik mazmuni birinchi o'rinda turibdi. Chunki ikkinchi qismda berilgan salbiy munosabat uchun (menga yoqmasdi) birinchi sodda gapda ifodalangan holat (ko'zlari cho'g'day edi) to'siq bo'la olmayapti. Mazmunan to'siqsizlikni ifodalasa ham, o'zaro zidlov bog'lovchisi (lekin) orqali bog'langani uchun bu gapni bog'langan qo'shma gap guruhiga kiritdik.

Qiyoslash munosabatini ifodalagan qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning ohangi ham turlicha bo'ladi, odatda, qo'shma gapning birinchi qismi baland ohang bilan, qo'shma gapning ikkinchi qismi esa nisbatan past ohang bilan talaffuz etiladi.

Qo'shma gap tarkibidagi qiyoslanayotgan bo'laklarga kuchli logik urg'u tushadi. Bu urg'u bo'lsa, esa fe'llari yordami bilan tuzilgan qo'shma gaplarda, ayniqsa, kuchli bo'ladi. Misollarga e'tibor beraylik:

*Aloq-chaloq tushga o'xshar hayotim,  
Ko'nglim bog'da, o'zim esa tog'daman.  
Ucholmasang, ortiqcha yuk qanoting,  
Bir bahona topolmasdan dog'daman.* (I. Mirzo, "Noz va firoq")

*Qo'ni-qo'shnilar ularning uyidan biron marta qattiq ovoz eshitishmagan, uylari bo'lsa, hamma vaqt yaraqlardi.* (S. Ahmad, "Ko'zlaringda o't bor edi")

Yuqoridagi qo'shma gaplarda ifodalangan zidlik mazmuni esa, bo'lsa so'zlari bilan birgalikda solishtirish, qiyoslash munosabati orqali yuzaga chiqqan.

Yuklama yordami bilan tuzilgan qo'shma gapning birinchi qismidagi intonatsiya, boshqa holatlarga nisbatan ancha yuqori bo'ladi:

*Sahar – odamlardan yugurib, o'zib,  
Ishxonaga qadar qo'yaman poyga.  
Kunduz – o'ltiraman sochlarim to'zib,  
O'zim stolda-yu, xayolim oyda.* (U. Azim, "Azizim")

Mazkur she'riy parchadagi bog'langan qo'shma gapda qiyoslash bilan anglashilayotgan qarama-qarshilik mazmuni bog'lovchi vazifasidagi yuklama (-yu) orqali kuchaytirilgan. Bundan tashqari ushbu vazifadosh bog'lovchi qo'shma gap qismlarini bog'lash vazifasini ham bajargan.

Qiyoslash munosabatini ifodalovchi qo'shma gap qismlari orasida to'xtam ancha cho'ziq bo'lishi ham mumkin. Bu holat yozuvda nuqta yoki nuqtali vergul bilan ko'rsatiladi. Bunda qo'shma gapni tashkil etgan qismlarning mazmuni mustaqil yoki tarkib jihatidan

**murakkab bo'ladi:** *Uzumchilik zvenosida ishlaganimda sirka solganman. Lekin men uni chug'urchiq cho'qigan g'ujumlardan solganman. (S.Ahmad "Chuchvara")*

#### XULOSA

Ma'lumki, tilning asosiy vazifasi kommunikativlikdir. Bu jarayon so'z, so'z birikmalari orqali emas, balki gap vositasida amalga oshadi.

Sintaktik sathda bog'lovchisiz, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplar zidlik munosabatini namoyon qiladi. Xususan, bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'zaro qiyoslash, chog'ishtirish; bog'langan qo'shma gap qismlari zidlik mazmunini ifodalaganda, qismlar o'rtasida qarama-qarshilik munosabati yuzaga chiqadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбек тили грамматикаси. 2-жилд. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1976.
2. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992.
3. Мамажонов А., Розикова Г. Гапларнинг шаклий-мазмуний тузилишига кўра турлари. – Фарғона, 2004.